



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



## LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)

**Xolova Sabina Jo'raqulovna**

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyot universiteti 1-kurs magistranti*

[sabinaxolova9@gmail.com](mailto:sabinaxolova9@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna**

*Alisher Navoiy nomidagi*

*ToshDO'TAU o'qituvchisi*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkiya ta'lif tizimida lirik asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos jihatlari, o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. Har ikki mamlakatda lirik asarlarni o'qitishda milliy qadriyatlar, badiiy tafakkur va estetik didni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, fanlararo integratsiya va ifodali o'qish usullarining qo'llanishi muhokama qilinadi.

### **Kalit so'zlar**

*Lirk asar, metodika, fanlararo integratsiya, ifodali o'qish, pedagogik texnologiya.*

### **Soyut**

Bu makalede Özbekistan ve Türkiye eğitim sisteminde lirik arı öğretimi metodolojisinin özel yönleri, benzerlikleri ve farklılıklarını analiz edilmektedir. Her iki ülkede de lirik eserlerin öğretiminde milli değerlerin, sanatsal düşüncenin ve estetik zevkin oluşumuna özel önem verilmektedir. Makalede modern pedagojik teknolojilerin kullanımı, disiplinlerarası entegrasyon ve ifade edici okuma yöntemleri ele alınmaktadır.

### **Anahtar Kelimeler**

*Lirk çalışma, metodoloji, disiplinler arası bütünlleşme, ifade edici okuma, pedagojik teknoloji.*

### **Аннотация**

В статье анализируются особенности, сходства и различия методики преподавания лирических произведений в образовательных системах Узбекистана и Турции. В обеих странах особое внимание уделяется формированию национальных ценностей, художественного мышления и эстетического вкуса при преподавании лирических произведений. В статье рассматривается использование современных педагогических технологий, межпредметной интеграции и методов выразительного чтения.

### **Ключевые слова**

*Лирическое произведение, методика, междисциплинарная интеграция, выразительное чтение, педагогическая технология.*

Lirik asarlar o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarni singdirish va adabiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston va Turkiyada lirik asarlarni o'qitish metodikasi o'ziga xoslik va zamonaviylikni uyg'unlashtiradi. Ushbu maqolada har ikki mamlakatdagi yondashuvlar tahlil qilinadi.



Lirika adabiy tur sifatida epos va dramadan keskin farq qilib, tahlil jarayonida unga xos belgilarni toliq hisobga olishni talab etadi. Agar epos va dramada inson turmushining obyektiv tomoni aks ettirilsa, lirikada ijodkorning ruhiyati, ongi, ongosti holati, ya'nikim, bevosita oziga tegishli subyektiv jihatlari ifodalanadi. Epos va dramaga mansub asarlarda borliq yoki ruhiyat tasvirlanadi, lirik bitiklarda esa ifoda etiladi. Lirika epos va dramaga oxshab san'atning tasviriy turiga emas, balki tamomila boshqa ekspressiv-hissiy turiga mansubdir. Shuning uchun ham lirik asarlar tahlilida epik va dramatik asarlar tadqiqida qo'llangan usullardan hamisha ham foydalanib bo'lmaydi. Bu tur asarlarni tekshirishda uning oziga xos yondashuv va usullari qo'llanishi kerak.

Lirik asarlar tahlilida ustuvorlik qiladigan jihat undagi oziga xos ichki psixologizmni hisobga olishdan iboratdir. Agar epos va qisman dramada timsollar ichki olami tashqaridan turib tasvirlansa, lirkadagi psixologizm bevosita va ekspressiv-hissiy bo'lib, subyektning izhori obyektning ruhiy ifodasiga mos keladi. Shu sababli ham lirika odam ichki olamini kechinma, sezgi va hissiyotlar orqali eposdagiga nisbatan bevosita, jonli va ta'sirli ifoda etadi.[4]

Har bir mamlakat darsliklarining o'ziga xos yondashuvlari mavjud. Shu jumladan, O'zbekiston va Turkiya davlatlari adabiyot darsliklarining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Buni bиргина lirik asarlarni o'qitishga xos bo'lgan yondashuvlar assosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston adabiyot darsliklarida asosiy yondashuvlar fanlararo integratsiyaga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, hamkorlikka asoslangan ta'lim, muammoli o'qitish alohida nazarda tutilgan. Bu yondashuvlarni biz umumiyo'rta ta'lim maktablarining 9-sinf adabiyot darsligida berilgan lirik asarlari blan tahlilga tortadigan bo'lsak, quyidagilarga guvoh bo'lamiz: Asosiy topshiriqlar savol-javoblarga asoslangan, bu esa muammoli ta'lim yondashuviga asoslangan. Shavkat Rahmonning "Tong ochar ko'zlarin..." nomli she'rini o'qitish maqsadida keltirilgan "Lirik qahramonning chumoliga qarata: "... dunyoni qilma ko'p masxara" tarzidagi murojaati ma'nosini tushuntiring" [5: 251] savoli o'quvchidan she'riy parchani tahlil qilishni, uning mazmunini ochishni talab qiladi.

Turkiya 9-sinf turk tili va adabiyoti darsligida esa o'quvchining so'z boyligini oshirish, estetik didni shakllantirish, til boyligini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, shuningdek, shaxsiy his-tuyg'ularni ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad qilinadi. Bu jarayonda she'rlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, ijodiy fikrlashga va tahlil qilishga o'rgatiladi. Asarlarni o'qitishda she'r tahlili orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan darslar orqali har bir o'quvchining rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Hayotiy misollar va real hayotga yaqin matnlar orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi. Matn ustida alohida ishlanib so'z ma'nolariga alohida e'tibor qaratiladi. Buni bиргина Faruk Nafiz Çamlıbelin "SAN'AT" nomli she'rda quyidagicha topshiriq berilgan:

San'at adlı şiirde geçen bazı kelimelerin sözlük anlamları verilmiştir. Bu kelimelerin sözlük anlamları ile okuduğunuz şiirde kazandığı anlamları



karşılaştırunız. Farklı anlamda kullanılan kelimeleri örnekteki gibi işaretleyiniz.[1: 17]

Kelime	Sözlük anlamı	Şiirde geçtiği dize	Farklı anlamda kullanılmıştır
Bahar	Ilkbahar	Bizim diiyarımız da binbir baharı saklar	Evet
Musiki	Müzik	Bizde geçer en hazin bir müsiki yerine	
Raks	Dans	Sen raksına dalarken için titrer derinden	
Zeybek	Batı Anadolu efesi	Toprağa diz vuruşu dağ gibi bir zeybeğin	

Shavkat Rahmonning “Tong ochar ko‘zlarin...” nomli she’rini o’qitishda quyidagi metodlardan foydalansak bo’ladi.

**“Besh minutlik esse”** metodi. Ushbu metodda o’quvchilarga she’r mazmunini ochib beruvchi kichik esse yozish topshiriladi. Esse o’qib eshittirilgandan so’ng o’quvchilar bilan tahlil qilinadi.

**“Badiiy tasvirni top”** usuli – bunda o’qituvchi she’r matnidan badiiy tasvirlar (metafora, o’xshatish, epitet)ni o’qiydi, o’quvchilar esa ularning qanday badiiy vosita ekanligini topishi kerak.

Turkiya darsligida berilgan Faruk Nafiz Çamlıbelin “San’at” she’rini o’qitish uchun quyidagi metod va yondashuvlardan foydalansak bo’ladi. Bular: tematik yondashuv, san’atlarni aniqlash, she’rni sahnalaştirish kabi yondashuvlar.

**“She’rni jonlantirish”.** O’quvchilar guruhlarga bo’linadi va har bir guruuh she’r asosida kichik sahna ko’rinishini tayyorlashadi. Bu usul o’quvchilarning ijodiy

**“She’rni tarjima qil”.** O’quvchilar she’rni o’qib, uning mazmunini nasriy shaklda yozadilar yoki og’zaki tarzda bayon qiladilar. Bu usul o’quvchilarning tahlil qilish va ifoda etish ko’nikmalarini oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O’zbekiston darsliklarida lirik asarlarni o’qitishga xos bo’lgan yondashuvlariga va metodikalariga o’zgartirishlar kiritib, badiiy asarlarni o’qitish metodikasini takomillashtirish kerak ekan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr. Mustafa Metin., Ercan Çümençö Özlem Aydın Türk dili ve edebiyatı 9.sınıf. Devlet kitaplari, 2024. – 308 s.
2. <https://oefen.uz/documents/referatlar/umumiyy/interfaol-ta'lismetodlari>
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o’qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022, 392 b.
4. Yo’ldosh Q., Yo’ldosh M. O’zbek adabiyotini o’qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 290 b.
5. Yo’ldoshev Q., Qodirov V., Yo’ldoshbekov J. Umumiyy o’rta ta’lim 9-sinf adabiyot darsligi. -T.: “O’zbekiston” NMIU, 2019. – 368 b.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATISH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

